

O‘ZBEK TILI PAREMALARNING SHAKLLANISHIDA MADANIY OMILLAR (“BESHİK” KONSEPTI MISOLIDA)

Sog‘inboeva Shahzoda Baxtiyorjon qizi

Namangan davlat universiteti talabasi

Qo‘ziyev Umidjon Yandashaliyevich

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Namangan davlat universiteti

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada beshik konseptining Qur‘oni Karim tafsiri xalq maqollari, ertak va afsonalarda badiiy talqin qilinishi, g‘oyaviy an‘analarda haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** konsept, diniy kontekst, frazeologizm, parema*

***Annotation:** In this article, the interpretation of the Holy Qur'an concept of the crib in folk proverbs, fairy tales and legends, artistic interpretation, and ideological traditions are discussed.*

***Key words:** concept, religious context, phraseology, paroemia*

***Аннотация:** В данной статье рассматривается трактовка Священного Корана понятия кроватки в народных пословицах, сказках и легендах, художественная интерпретация, мировоззренческие традиции.*

***Ключевые слова:** концепт, религиозный контекст, фразеология, паремь.*

Parema ma‘lum bir tildagi avloddan avlodga og‘zaki shaklda ko‘chib yuruvchi, ixcham va sodda, qisqa va mazmundor, mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo‘lgan turg‘un ibora; maqol, matal. [6]

Frazeologik birliklar har doim majoziy ma‘noda qo‘llaniladi. Ularning kelib chiqishi odamlarning an‘analari, urf-odatlar va xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘liq. Ular xalq madaniyatining ko‘rsatkichidir. Bir nechta frazeologik birliklar xalqning diniy manbalari asosida shakllangan. O‘zbek tilining barqaror birikmalari tarkibida uchraydigan ayrim frazeologizmlar, maqol va matallar Qur‘oni Karimda keltirilgan oyatlar, oyatlarda bayon qilingan rivoyatlar, hadislar bilan bog‘liq holda shakllangan.

Yerni beshikdek moslab qo‘ymadikmi (Naba‘ 6-oyat). [5. (6-qism) 347-bet] Ona zaminning, yerning beshikka qiyoslanishi adabiyotlarda, xalq og‘zaki ijodida juda ko‘p uchraydi. Ehtimol, beshik o‘z bag‘rida chaqaloqni asrab-avaylab ulg‘aytirganidek, yer ham insoniyatni o‘z bag‘rida saqlaganligi uchun bu o‘xshatish o‘ylab topilgandir. Balki, beshikda go‘dak yashashi qulay bo‘lishi uchun hamma “sharoitlar” bor bo‘lganidek, ona zaminda, ona tabiatda ham odamzod yashashi uchun barcha noz-ne‘matlar, barcha ezguliklar mujassam ekanligi tufayli kurrayim zamin beshikka qiyoslanar. Yer Quyosh sistemasi atrofida xuddi beshikdek muloyim tebranib aylanadi, ehtimol ana shunday muloyimligi uchun beshikka tashbeh qilinadi.

O‘zbek xalq maqollarida vatan, ona yurt tushunchalari beshik leksemasi orqali ifodalanadi. Bag‘rida asrab-avaylagan yurt beshikdek xavfsiz, mehrga to‘ladir. Beshik xalqimizning ming yillar tarixidan sado beradi, uning kelib chiqishi ko‘chmanchi qabilalarga tegishli, ko‘chib yurgan xalq ayollari bolalarini katta qilish uchun beshikdan foydalanganlar va bu qulay usul hisoblangan.

Beshik ma‘lumotlarga ko‘ra X-XI asrlarda qoraxoniylar davrida O‘rta Osiyoda paydo bo‘lgan. [11] U odatda archa yog‘ochidan yasalgan va buning ikki xil sababi bo‘lgan: 1) archa yog‘ochi bakteriya va zararli hasharotlarga qarshi xususiyatga ega; 2) turkiy xalqlar e‘tiqodiga ko‘ra, xuddi isiriq kabi turli jinlar va yomon illatlardan saqlovchi daraxt hisoblangan. Har ikki sababni umumlashtirgan holda archa shoxlari to‘y-marosimlarda tutatilgan.

Beshik atamasi o‘zbek xalq dostonlarida muhim milliy kolorit ifodalovchi birlik sifatida ko‘p qo‘llanadi, jumladan, beshik bilan bog‘liq beshikkerti, beshikto‘y marosimi “Alpomish” dostonida o‘ziga xos milliy an‘ananing tasvirini yaratgan. Tug‘ilgan ikki chaqaloq: Alpomish va Oybarchinni hali beshikdalik paytida bir-biriga unashtirib qo‘yiladi, aynan beshikdalik paytida bo‘lgani uchun ham beshikkerti nomini olgan. Bu marosim beshikquda, baxshanna, gavrobaxsh, gavrobannon, etak yirtdi, etak chatdi kabi nomlar bilan ham nomlanadi. [6] O‘zbek milliy qadriyatlarida hozir bunday marosim kamdan kam uchraydi.

Andijonlik ulug‘ bobomiz, shoh va shoir, mohir sarkarda Zahiriddin Muhammad Boburning hayotida yuz bergan “Oltin beshik” afsonasi XIX asrning boshida Qo‘qon saroy tarixchisi Mushrif Isfaragiy tomonidan Amir Umarxonga bag‘ishlab yozilgan “Shohnomayi Umarxoniy” nomli tarixiy asarda birinchi marta uchraydi. Ushbu afsonada keltirilishicha, Bobur Samarqanddan bosh olib Hindiston sari ketayotganida ayollaridan biri o‘g‘il farzand ko‘radi. Qochoqlar go‘dakni qarovsiz tashlab ketishdan o‘zga choralari qolmaganda, uni qimmatbaho ziynatlangan beshikka solib sodiq xizmatkoriga qoldiradi, o‘zbeklarning qozoq, qirg‘iz, ming, qirq urug‘larining ovullari o‘sha atrofda edi va ular go‘dakni topib olishadi. Beshikning qimmatbaholigini ko‘rib, unga “Oltin beshik” deb nom berishadi.

Qirg‘iz xalqining sevimli ijodkori Chingiz Aytmatovning “Oq kema” asarida Shoxdor ona bug‘u Issiqko‘lga olib kelgan yigit va qiz balog‘atga yetib, turmush qurib, farzandli bo‘lganlarida, Shoxdor ona bug‘u ularga oppoq qayindan yasalgan, bandida kumush qo‘ng‘iroqchasi bor beshikni shoxlarida ko‘tarib keladi. Beshik asarda avlodlarning davom etishi, millat belgisi sifatida tasvirlanadi.

Beshik xalq og‘zaki ijodida lingvokulturologik birlik sifatida ko‘pgina janrlar tarkibida, jumladan maqollarda ham ko‘p uchraydi.

Ona yurtning – oltin beshiging. Beshik so‘zining tug‘ilib o‘sgan vatan ma‘nosini ifodalayotgani hammaga ma‘lum, oltin so‘zi esa podshohlik, qadrilik

semalarini bildirib, ushbu maqol o‘zga yurtda shoh bo‘lguncha, o‘z yurtida gado bo‘l maqoliga hamohangdir.

Elning ichi — oltin beshik. Ushbu maqolda “tug‘ilgan joy” semasidan tashqari “erkalanish, himoya, qulaylik” semalari bo‘rttirib ko‘rsatilgan. Bu bilan ko‘pchilik bilan kelishib qilingan ishning bexavotir bo‘lishi, jamoaviy munosabatning samimiylashuviga intilish uqtirilmoqda.

Beshikda tekkan, kafanda ketar. Mazkur maqolda beshik metonimiya usulida “ona suti”, “go‘daklik” semalarini ifodalaydi, natijada, tug‘ma fitratning o‘zgarmasligi, tarbiyaning juda yoshlikdan boshlanishi, halol rizq bilan parvarish qilish muhimligi ta’kidlangan. Ushbu maqolga hamohang tarzda “Sut bilan kirgan, jon bilan chiqar” maqolini keltirishimiz mumkin. Insonning fe‘l-atvoridan kelib chiqqan fazilat va illatlar hech qachon yo‘qolmasligini ta’kidlagan. “Bukrini go‘r to‘g‘rilaydi” maqolida “tug‘ma illat” semasi yaqqol namoyon bo‘ladi. Odamning xarakteri beshikdaligidayoq namoyon bo‘lishi “Manmanlagan xotinni beshikligida sina” maqolida “tug‘ma illat”, “tug‘ma fazilat” semasi misolida ta’kidlanadi.

Tug‘ilmagan Tilovga tilla beshik. Insonning boshiga tushadigan musibatlardan biri farzandsizlikdir, uzoq yillar davomida farzandli bo‘lolmagan ota-ona, necha yildirki, farzandli bo‘lsa Xudodan tilab olingan, so‘rab olingan chaqaloq ma’nosida Tilovberdi, Tilovbergan, Xudoyberdi, Xudoybergan kabi ismlarni qo‘yadi. Ana shu farzand uzoq yillar davomida kutiladi, unga atab beshik va kiyimlar olinadi. Maqolda natija chiqishi aniq bo‘lmagan ishlarni e’lon qilish, maqtanish kabi xususiyatlar qoralanadi. Podadan oldin chang chiqarmoq frazeologizmida ham shu ma’no aks etadi.

Eshik ko‘rgan yurt buzar, beshik ko‘rgan yurt tuzar. Bu yerda eshik “turmush qurish”, “oila” semalarini ifodalaydi, beshik so‘zi esa “farzand”, “tarbiya” ma’nolarini bildiradi. “Eshik ko‘rgan” iborasi bu yerda salbiy ma’noda bir necha bor turmush qurib, xalq ta’biri bilan aytganda “ko‘pni ko‘rgan” frazemasiga to‘g‘ri keladi. “Beshik ko‘rgan” esa oila qurib, farzand ko‘rib, uni tarbiya qilib, turmushning achchiq-chuchugidan birmuncha xabardor bo‘lgan inson holatini tasvirlaydi. “Eshik ko‘rganni emas, beshik ko‘rganni ol” maqoli bunga hamohang tarzda kelib chiqqan.

Beshikdagi bolaning bek bo‘lishini kim bilar. Asli kambag‘al oilada tug‘ilgan, qishloqda yashagan, yetimlikda o‘sgan, hattoki maktabga ham borishga sharoiti bo‘lmagan insonlardan buyuk odamlar yetishib chiqqaniga dunyo ahli guvoh, yillar o‘tib butun dunyoni boshqargan podshohlar, ko‘plab sirli ilmlarni kashf qilgan olimlar, millatning uyg‘onishiga sababchi bo‘lgan yozuvchi va shoirlar, hali hech kim uddalamagan ixtirolarning kashfiyotchilaridan ayrimlari xuddi shunday muhitda voyaga yetgan. Albatta, taqdirni oldindan bilish insonlarga berilmagan ilm, diniy manbalarda “g‘ayb ilmi” deb ataluvchi bu ilm yagona Allohgagina xosdir.

Qizni beshikka sol, sepini sandiqqa sol. Xalqimizning azal-azaldan mavjud bo‘lib kelgan urf-odat, an‘analaridan biri qizni uzatganda unga sarpolar berish va buning uchun qizning yoshligidan sep yig‘ish. Shu o‘rinda ta‘kidlab o‘tish kerakki, sandiq ham o‘zbek xalqining qadimiy uy-ro‘zg‘or buyumlaridan hisoblanib, unda kiyim-kechak, oziq-ovqat, idish-tovoq kabi turli buyumlar saqlangan. Hozirda zamonaviy uy-ro‘zg‘or buyumlaridan foydalanilayotgani uchun, sandiqqa ehtiyoj kam, ammo qizlar uchun sarpo yig‘ishda foydalaniladi.

Bola beshikdan yiqilguncha, podsho taxtidan yiqilsin. Go‘dak to‘ulg‘aygunga qadar beshikda yotadi, suyaklari mustahkam bo‘lguncha uni asrab-avaylashi kerak, shuning uchun ham uni beshikka mahkam bog‘lab, uni yiqilishidan ehtiyot qilish kerak. Agar yiqilsa unga qattiq jarohat yetishi mumkin va buning natijasida kelajakda biror nuqsonli yoki nogiron bo‘lib qolishi mumkin. Bundan ota-ona uchun katta g‘am-tashvish kelib chiqadi va bu mubolag‘ali tarzda podshoning taxtdan yiqilgani afzalligiga o‘xshatiladi.

Bola bo‘lsa, beshik topilar. Islomda oila muqaddas hisoblanadi, zero payg‘ambarimizning shunday so‘zlari bor. “Ko‘payinglar, men qiyomat kunida sizlarning ko‘pligingizdan faxrlanaman”. Moddiy yetishmovchilik, kambag‘allikdan yoki farzandni boqishdan qo‘rqib, xuddi johiliyat davridagidek, qiz bolani nomus deb bilib, uni go‘dakligidayoq o‘ldirish qattiq qoralangan. Alloh har bir bandani o‘z rizqi bilan yaratganligi Quronda ham keladi. “Xud” surasining 6-oyatida: “Yer yuzida o‘rmlagan kimsa borki, ularning rizqi Allohning zimmasidadir. U ularning turar joylarini ham, borar joylarini ham bilur. Hammasi ochiq-oydin kitobdadir” deya marhamat qiladi. Xalqimizda “Bosh omon bo‘lsa, do‘ppi topilar” maqoli zamirida ham ana shunday ma‘nolar mujassam.

“Beshik bolasi – bek bolasi” deydi dono xalqimiz. O‘zbek xalqida farzand tarbiyasi juda ham muhim hisoblanadi, unga hamma birdek mas‘ul bo‘ladi, uning tarbiyasida nafaqat ota-ona, balki, bobo-buvilarning ham ahamiyati katta. Ayniqsa, beshikdagi bolani parvarish qilish uchun alohida vaqt va e‘tibor talab qilinadi, shuning uchun chaqaloq bekka o‘xshatiladi.

Adabiyotlar:

1. Кузиев У. Я. About sociolects and their place in glossaries (in example Uzbek language and dictionaries) //Научные исследования: теория, методика и практика. – 2017. – С. 281-286.
2. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. –Тошкент. 1978.
3. То‘ра Mirzayev. O‘zbek xalq maqollari. «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2005.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎЗМЭ, 2006-2008. 5 жилдлик.
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiiri Hilol. - Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2009.
6. https://uz.wiktionary.org/wiki/Bosh_sahifa